

PUBLITSISTIK USLUBDA QO'LLANILUVCHI QO'SHTIRNOQLI VA SARLAVHALARDAGI METAFORALAR (FARMON TOSHEV PUBLITSISTIKASI NAMUNALARI ASOSIDA)

Aminova Nafisa Istamovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, doktorant.

e-mail: nafisa.istamovna1@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-8181-9299>

Annotatsiya.

Farmon Toshev metaforalarining katta qismi qo'shtirnoq yordamida reallashgan. Farmon Toshev publitsistikasida qo'llangan qo'shtirnoqli metaforalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchisi — tilda mavjud bo'lgan so'z va iboralar. Ikkinchisi — individual metaforalar. Farmon Toshev publitsistikasi matnida qo'llangan qo'shtirnoqli metaforalar kutilmagan obrazlilikni yuzaga keltirishga, o'quvchiga ta'sir o'tkazishga va estetik zavq berishga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir.

Kalit so'zlar: individual metafora, qo'shtirnoqli metafora, punktuatsiya, sarlavha, kinoya, obrazlilik, stilistik ma'no.

МЕТАФОРЫ В КАВЫЧКАХ И ЗАГОЛОВКАХ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ЖУРНАЛИСТСКОМ СТИЛЕ (НА ОСНОВЕ ПРИМЕРОВ ИЗ ЖУРНАЛИСТИКИ ФАРМОНА ТОШЕВА)

Аминова Нафиса Истамовна

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, докторант.

Аннотация.

Значительная часть метафор Фармона Тошева реализуется посредством использования кавычек. Метафоры в кавычках, употребляемые в публицистике Фармона Тошева, условно можно разделить на две группы. К первой относятся существующие в языке слова и выражения, ко второй — индивидуально-авторские метафоры. Метафоры в кавычках, используемые в публицистических текстах Фармона Тошева, примечательны тем, что создают неожиданную образность, усиливают воздействие на читателя и способствуют эстетическому восприятию текста.

Ключевые слова: индивидуальная метафора, метафора в кавычках, пунктуация, заголовок, ирония, образность, стилистическое значение.

METAPHORS IN QUOTATION MARKS AND HEADLINES USED IN JOURNALISTIC STYLE (BASED ON EXAMPLES FROM FARMON TOSHEV'S JOURNALISM)

Aminova Nafisa Istamovna

Sharof Rashidov Samarkand State University, Doctoral Student.

Abstract.

A significant number of metaphors in Farmon Toshev's works are realized through the use of quotation marks. The quoted metaphors employed in Farmon Toshev's journalistic writing can conventionally be divided into two groups. The first group includes words and expressions already existing in the language, while the second consists of individual authorial metaphors. The quoted metaphors used in Toshev's journalistic texts are noteworthy for creating unexpected imagery, influencing the reader, and producing an aesthetic effect.

Keywords: individual metaphor, quoted metaphor, punctuation, headline, irony, imagery, stylistic meaning.

Kirish. Publitsistik matnlarda metaforalar g'oyatda keng qo'llanilishi bilan o'ziga xosdir. Ular orasida tilda avvaldan mavjud bo'lgan, ammo publitsistik matnlarda yangicha mazmun kasb etgan, kutilmagan emotsional-ekspressiv ottenkalarni bergan so'z va iboralar ko'p uchraydi. Bu metaforalarning katta bir qismini muallifning o'zi ijod qilgan.

Matnlarda so'zning metaforalashuvga qadar metaforalashgan, ya'ni qavatlangan holda qo'llangan bo'lsa, so'zlardagi tagma'noning bir qismi qo'shtirnoq tufayli yuzaga kelgan. Bu esa metaforalashuv har qanday til boyib borishining samarali usullaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Biz tahlilga tortgan Farmon Toshev publitsistikasida ommaga tushunarli bo'lgan umumiste'moldagi so'zlar yozuvchiga xos uslubda qo'llanilgan. Xalq tili va madaniyatini namoyon etuvchi metaforalarda etnik va milliy xususiyatlar mujassamlashgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbek tilshunosligida tinish belgilari – punktuatsiya muammolari bilan shug'ullangan olimlardan biri prof. Karim Nazarovdir. Olimning fikricha, punktuatsiya polisemantik (ko'p ma'nolilik) va polifunksional xususiyatga ega. Masalan, vergul yozma nutq jarayonida ajratish, chegaralash, ayirish, izoh, ta'kid kabi bir qancha vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi; nuqta esa xabar ma'nosidan tashqari, buyruq, iltimos, istak ma'nolari uchun ham ishlatiladi. Kesatig, mazax, kamsitish, kinoya ma'nosidagi so'zlar yozuvda ko'proq qo'shtirnoq bilan beriladi.

Tinish belgilari stilistik ravonlikni ta'minlovchi vositadir [2; 7-b].

Prof. S. Karimov esa "O'zbek tilida tinish belgilari stilistikasi" nomli asarida qo'shtirnoq stilistikasiga alohida e'tibor qaratgan, boshqa tinish belgilari qatorida qo'shtirnoqning paydo bo'lish tarixi, bunda vaqtli matbuotning roli, bu borada o'zbek tilshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xususida atroflicha fikr-mulohazalar bildirilgan. Ushbu manbada qayd etilishicha, boshqa tinish belgilariga qaraganda qo'shtirnoqning grammatik vazifa bajarish ko'lamini keng. U ko'chirma gaplar va iqtiboslardan tashqari, kitob, gazeta va jurnallarning; orden va medallarning nomlarini; muassasa, tashkilot va korxonalarining hamda turli xildagi mahsulotlarning shartli nomlarini matn tarkibidan chegaralab, ikki tomonidan ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladiki, bu uning grammatik vazifasidir. Qo'shtirnoqning ana shu vazifalarni bajarishi barcha kitobiy funksional uslublarga xos xususiyat [1; 133-b].

Ammo bu tinish belgisi yana bir muhim vazifani – stilistik vazifani ham ado etadiki, bu asosan badiiy va publitsistik uslubga xos matnlarda namoyon bo'ladi.

S. Karimov tahlillariga ko'ra, qo'shtirnoq yaqqol ifodalaydigan stilistik ottenkalar bu – kinoya, kesatiq, piching, birovning ustidan kulish, masxaralash kabildir, degan xulosalarni beradi. Shuningdek, "qo'shtirnoq matnda ikki vazifani – ham grammatik, ham stilistik vazifani ado etadi. Ammo uning stilistik vazifani ado etishi boshqa tinish belgilariga qaraganda yaqqol ma'lum bo'lib turadi. Uning qo'llanishida uslubiy chegaralanishlarni ham payqash mumkin. Qo'shtirnoq grammatik vazifani asosan ilmiy, rasmiy va publitsistik, stilistik vazifani esa badiiy-publitsistik matnlarda ado etadi" [1; 137-b].

Bizni bu o'rinda badiiy-publitsistik matnlarda qo'llaniladigan qo'shtirnoq tufayli sodir bo'ladigan metaforalashuv qiziqtiradi.

"So'z qo'llash yoki gap qurilishida muallif individualligi, uning o'ziga xos uslubi qanday sezilib tursa, bu holatni uning tinish belgilariga bo'lgan munosabatida ham payqash mumkin. Ijod jarayonida o'quvchiga badiiy-estetik ta'sir o'tkazishning, ifodalilikning barcha til vositalarini axtarganda muallif matnda tinish belgilarining imkoniyatlaridan ham samarali foydalanishga harakat qiladi. Shuning uchun ham, tinish belgilarining ma'lum ma'noda funksional uslublarda xoslanishiga oid xulosalarga tayangan holda ularni qo'llashda muallif individualligi mavjudligi haqida gapirish mumkin bo'ladi", – deb yozadi S. Karimov [1; 144-b].

Muhokama. Darhaqiqat, badiiy va publitsistik uslublarga xos matnlarda ijodkorning individual uslubi va matn talabiga mos tarzda so'z yoki iboraning qo'shtirnoq bilan va qo'shtirnoqsiz qo'llanish holatlari uchraydi. Stilistik nuqtayi nazardan uning qay biri afzal, degan savol tug'iladi.

Quyidagi *Ota degan zot qaysidir o'g'lining "shakkokligi"dan davlat idorasiga arz qilib tursa?! [5; 27-b]* gapidagi shakkoklikni Farmon Toshev qo'shtirnoqsiz berishi ham mumkin edi. Uni "shak keltirmoq", "otaning aytganlaridan bosh tortmoq" ma'nolarida tushunaverar edik [4; 36-b].

Ammo shakkoklik qo'shtirnoq ichiga olinishi orqali u o'z zimmasiga ko'proq vazifani olgan – barcha salbiy, yaramas, nomaqbul odatlar ifodasi sifatida aktuallashgan. Bu qo'llanishda so'zning otaniki ekanligiga ham ishora bor.

Mana bu *Siz esa, oilamizda bir ukam xotini bilan ajrashganda o'g'ilning e'tiborsizligi, kelinning "sho'xligi", mahalla-ko'yni nazaridan or qilib, Ziyovuddindagi hovlimizga ko'chib keldingiz [5; 28-b]* gapidagi sho'xlikning qo'llanishi shakkoklikdagi kabi "yumshoq"dir. Sho'xlikning denotativ holatida salbiy ottenka yo'q. Bu ottenkani u qo'shtirnoq tufayli olgan, kelinning barcha salbiy, noma'qul odatlarini o'zida mujassam qilgan.

Ijodkorning qo'shtirnoqqa munosabatida yana bir holat kuzatiladi – so'z ushbu matnda qo'llangunga qadar metaforaga aylanib bo'lgan. Masalan, iz qoldirmoq frazemasidagi izda shu hodisa avval sodir bo'lgan: *Shul bois yo'qlovni ko'proq o'zim anglagan, guvoh bo'lgan, xotiramda iz qoldirgan voqealarga bog'ladim [5; 10-b]*. Shu boisdan u qo'shtirnoqqa olinmagan.

Shuningdek, *Ayrimlarga o'xshab "erkin ijodkor" emasdingiz. Davlat ishidan, nashriyot tahriridan, muharrirlikdan vaqt topib ijod qildingiz [5; 40-b]* gapidagi "erkin ijodkor" ijodiy mehnat bilan shug'ullanuvchi, lekin muayyan tashkilotda shtatda turmaydigan shaxslarga (yozuvchi, rassom, hunarmand va h.k.) beriladigan maqom. Shu ma'noda jumlaning to'g'ri ma'noda tushunish va qo'shtirnoqsiz qo'llash mumkin. Ammo muallifning uni qo'shtirnoqqa olishida muayyan maqsad yashiringan. U "siz har ikki faoliyatni baravar olib bordingiz" demoqchi. "Birovlarga o'xshab" jumlasini keltirish bilan qahramonning o'zini erkin ijodkor hisoblaydigan ba'zi bir odamlarga kinoya qiladi, ulardan ustunlik jihatlari ishora qiladi.

Farmon Toshev publitsistikasida qo'llangan qo'shtirnoqli metaforalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchisi – tilda mavjud bo'lgan so'z va iboralar. Masalan, "amaldor" ma'nosidagi katta, "och, yeb to'ymas" ma'nosidagi ko'zi to'ymas, "daromadli" ma'nosidagi yog'li kabi birliklar o'zbek tili leksik-frazeologik fondida avvaldan mavjud: *"Katta"larning odamlari haqida tanqidiy maqola yozardim [5; 88-b]. O'z ehtiyojidan ko'p narsani talab qilish shaxsiy manfaatning salbiy ko'rinishi. Bunaqalarni "ko'zi to'ymaydiganlar" toifasiga kiritamiz [5; 129-b]* va hokazo.

Ammo ularning hammasini ham adib tilda qaysi ma'nosi bilan metaforalashgan bo'lsa, o'sha holida qo'llamaydi. Masalan, tilimizdagi katta ketmoq – "o'zini boshqalardan yuqori olmoq" ma'nosida qo'llaniladi. Ammo shoir Sobir O'nar ijodi tahlili jarayonida katta ketmoqning shoir Azim Suyunga nisbatan butunlay o'zgacha ma'no – "faxrlanmoq, g'ururlanmoq" ma'nosida qo'llanganiga e'tibor qaratiladi: *Azim aka qayerda bo'lishidan qat'i nazar, qalbi tabiat bilan bog'langanini, o'zi tug'ilib o'sgan ma'sum go'shalar shoirning o'ktamligi, mardligi va "katta ketishi"ga bois bo'layotganini anglab turasiz [5; 194-b]*.

Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da ham, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham labi-lunjini kelishtirmoq iborasi keltirilmagan [3; 481-b].

Ammo og'zaki so'zlashuv uslubida uning labi-lunjini to'g'rilamoq varianti bor. Ibora "biron narsadagi xato va

kamchiliklarni tuzatmoq" ma'nosini beradi. Farmon Toshev qo'llagan ibora esa bu iboraga qaraganda jonli va obrazliroqdir: *Sur'at aka "labi-lunjini kelishtirib", "Zamonaga munosib bo'laylik" degan maqolamni tayyorladi [5; 84-b].*

Ikkinchisi – individual metaforalar. S. Karimov "Badiiy-publitsistik uslublarga xos matnlarda tinish belgilari stilistik bo'yoqdorlik uchun xizmat qiladi, o'zining birlamchi vazifasi – semantik-grammatik vazifa bajarish doirasidan tashqariga chiqadi, tasviriy va emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini namoyish etadi", degan fikrni aytgan [1; 141-b].

Natijalar. Farmon Toshev publitsistikasi matnidagi qo'shtirnoqli metaforalarning aksariyati ham individual va ular ifodada kutilmagan obrazlilikni paydo qilishga, o'quvchiga ta'sir o'tkazish va estetik zavq berishga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir. Ularning ayrimlarini ko'zdan kechiramiz.

– **asar.** Qo'shtirnoq ichiga olingan metaforik so'zning o'z asl ma'nosini bermasligi, aksincha, teskarisini anglatishi obrazlilikni, ayni paytda, unga nisbatan salbiy munosabatni ifodalaydi. Quyidagi gapda ana shu teskari ma'no gapning o'zida berilgan: *Mutlaqo yaroqsiz deyish to'g'ri bo'lmas, ammo o'rtamiyona, kitob desa ham, demasa ham bo'laveradigan, o'quvchining ongiga hech narsa bermaydigan, aksincha, uning badiiy didini o'tmaslashtiradigan "asarlar" haddan tashqari ko'payib ketdi [5; 49-b].*

– **mukofot.** *Matbuot va axborot agentligi yaqinda yilning eng yomon kitoblarni aniqlash bo'yicha tanlov e'lon qildi. G'aroyib tanlov. Demak, bizda yomon kitoblarning mavjudligi rasman tan olindi. Xo'sh, g'oliblarga qanday "mukofotlar" beriladi? [5; 50-b]* gapidagi mukofotda qo'shtirnoq tufayli u anglatadigan ijobiy ottenka – rag'batlantirishning aksi bo'lgan "jazolash" ottenkasi g'oyatda mukammal tarzda ifodalangan.

– **taniqli.** *Yaqinda bir kollej talabasi uchinchi kitobini keltirdi. Hammasiga "taniqli" shoirilar so'zboshi yozgan. Biroq suhbat chog'ida bu qizaloq hali na G'afur G'ulomdan, na Hamid Olimjondan she'r aytib bera oldi [5; 56-b].* Demak, qo'shtirnoq ostida bu nashrga so'zboshi yozganlarning o'zini hali hech kim tanimaydi, degan ma'no yotibdi. Agar u olib tashlansa, ma'no butunlay o'zgarib ketadi.

Farmon Toshev ustozlar an'analarini davom ettirib, "To'ylar qadriyatmi yoki tijorat?" nomli maqola yozgan. Unda bugungi o'tkazilayotgan to'ylarga, urfga kirgan ba'zi noma'qul illatlarga munosabat bildirgan [5; 110-b]. Publitsist maqola matnida to'ylarning o'tish jarayonlarini yoritishda hammaning ham xayoliga kelavermaydigan so'zlarga metaforik mazmun beradi. Aslida ularning xizmatlariga hech qanday zarurat bo'lmasa ham, to'y egasi xohlama-xohlama ham paydo bo'lib, so'rab-so'ramasdan xizmat ko'rsatib ketaveradiganlarni achchiq kinoya bilan "hojatbarorlar" deb ataydi va bu bilan hojatbaror so'ziga teskari ma'no yuklaydi: *To'y kuni belgilangandan qizning eshigi oldida uchta "hojatbaror" paydo bo'ladi – biri darvozangizni shar bilan bezaydi, ikkinchisi karnay-surnay chaladi, uchinchisi poyandoz to'shaydi [5; 105-b].* To'ylarda inomarka mashinalari bilan xizmat qilishni kasb qilib olgan, xayolida puldan boshqa narsa bo'lmagan kimsalarga "hotamtoylar" degan nom beradi: *Darvoqe, ko'p o'tmay kelinni mashinada olib yuradigan "hotamtoy"lar paydo bo'lishadi [5; 105-b].* Bu holatlarda qo'shtirnoq ichidagi so'zlar imkon qadar stilistik vazifa bajargan.

Xulosa. Darhaqiqat, so'zga mas'uliyat deb qaragan aksariyat ijodkorlar sarlavhaga ahamiyat berishadi, uning nomlanishi ustida jiddiy bosh qotirishadi. Milliy tushuncha tizimining lingvokognitiv xususiyatlaridan oziqlangan metaforalarning sarlavhalarga olib chiqilishi ham xalq poetik tafakkurining ko'rinishidir. Ularda publitsistik ifoda uslubiga xos qisqalik, ixchamlik, ta'sirchanlik, mantiqning kuchliligi yaqqol namoyon bo'lib turadi. Sarlavhaga ko'z tushishi bilanoq o'quvchida muayyan tushuncha shakllanadi. Bu aytilganlardan sarlavhada metaforalarni qo'llash publitsistik matnlarning tabiatiga mos keladigan xususiyatdir, degan xulosa kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov S. A. O'zbek tilida tinish belgilari stilistikasi: monografiya. – Samarqand: Fan bulog'i, 2022. – 160 b.
2. Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq. – Toshkent: Fan, 1974. – B. 17.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B. 175; O'zbek tilining izohli lug'ati: besh jildlik. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 511.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati: besh jildlik. 4-jild. – B. 536.
5. Farmon. Saylanma. IV jild: Publitsistika va dramalar. – Toshkent: SAHHOF, 2024. – B. 368.